



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**VAZIRLAR MAHKAMASI HUZURIDAGI
O‘ZBEK TILINI RIVOJLANTIRISH JAMG‘ARMASI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI HUZURIDAGI DAVLAT
TILIDA ISH YURITISH ASOSLARINI O‘QITISH VA MALAKA OSHIRISH
MARKAZI**

“DAVLAT TILI TARAQQIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR”

mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumani

MATERIALLARI

**“BOOKMANY PRINT”
TOSHKENT – 2025**

UO‘K: 494.375

KBK: 81.633.1

D 26

Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar [Matn]: to‘plam / Sh.Sirojiddinov.
– Toshkent: Bookmany print, 2025. – 450 b.

Mazkur to‘plam “Davlat tili taraqqiyoti: muammo va yechimlar” mavzusidagi V respublika an’anaviy ilmiy-amaliy anjumaniga tilshunos olimlar, vazirlik, idoralar, mahalliy ijro etuvchi organlarning davlat tili bo‘yicha maslahatchilari hamda tadqiqotchilar tomonidan yuborilgan materiallardan tashkil topgan. Undagi maqolalarda davlat tilining dolzarb muammolari, ularni hal qilish bo‘yicha takliflar, yechimlar berilgan. To‘plam tilshunoslar, professor-o‘qituvchilar, tadqiqotchilar, magistrlar va talabalar uchun mo‘ljallangan.

(Maqolalarning ilmiy saviyasiga mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar).

Mas’ul muharrir:

Sh.Sirojiddinov, filologiya fanlari doktori, akademik

Tahrir hay’ati:

I.Azimov, filologiya fanlari doktori, professor

A.Eminov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

B.Jo‘rayeva, filologiya fanlari doktori, professor

M.Abdiyev, filologiya fanlari doktori, professor

F.Bobojonov, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Saparniyozova, filologiya fanlari doktori, dotsent

M.Hakimova, filologiya fanlari doktori, professor

M.Umirzoqova, filologiya fanlari doktori, dotsent

H.Yodgorov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

H.Suyunov, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

N.Quldashev, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi Ilmiy-metodik kengashida nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9910-06-774-7

© “Bookmany print” nashriyoti, 2025.

O'ZBEK TILI TERMINOLOGIYASI RIVOJINING BA'ZI MASALALARI

Murodqosim ABDIYEV*

Annotatsiya

Mazkur maqolada tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalalari to'g'risida fikr yuritilgan. Jumladan, respublikamiz davlat tili bo'lmish o'zbek tili terminologiyasidagi muammoli masalalarga to'xtalib o'tilgan. Terminlar aniq va qat'iy bo'lishi soha vakillariga tushunarli tarzda ifodalanishi barobarida ko'pma'nolilik, ma'nodoshlik, variantlik singari unsurlardan xoli bo'lishi texnika terminologiyasi misolida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: til, o'zbek tili, davlat tili, soha, termin, so'z, terminologiya, aniq, tushunarli, muammo, masala, fan, madaniyat, san'at, texnika, qo'llanish, tartibga solish.

Some Issues of Uzbek Language Terminology Development

Abstract

This article discusses the issues of terminology regulation in linguistics. In particular, problematic issues in the terminology of the Uzbek language, which is the state language of our republic, were touched upon. It is explained on the example of technical terminology that terms should be clear and strict, expressed in a way that is understandable to representatives of the field, and free from such elements as ambiguity, synonymy, variability.

Keywords: language, Uzbek language, state language, field, term, word, terminology, clear, understandable, problem, issue, science, culture, art, technology, application, regulation, etc.

Ma'lumki, har bir tilning lug'aviy boyligi uning o'ziga xos ma'no qatlamlari va ularda ifodalangan xususiyatlari bilan ajralib turadi. So'zlar anglatgan ma'nolarini chuqur anglash tilning to'g'ri, aniq va samarali qo'llanilishi uchun muhim zamin yaratadi.

Hozirgi kunda global axborot maydonida turli yosh va bilim darajasiga ega bo'lgan millionlab foydalanuvchilar til resurslaridan foydalanmoqdalar. Bu esa ular o'rtasida ona tiliga xos so'z va terminlarning o'rniga chet tiliga xos variantlarni qo'llash odat tusiga kirib bormoqda. Aslida terminlar til lug'at tarkibining jonli bir a'zosi sifatida unifikatsiyalanish, integratsiyalanish va differentsiatsiyalanish xususiyatiga ega. Ilm-fan, texnika, texnologiya borasidagi global yutuqlar, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, jahon ilm-fani yutuqlari va yangiliklarining ochiq

* Filologiya fanlari doktori, professor. Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazi Samarqand viloyati bo'linmasi rahbari.

internet nashrlarda e'lon qilib borilishi istalgan yangi terminlarning tezda turli tillarda ifodalanishiga sabab bo'lmoqda. Bu nafaqat yoshlar, balki soha xodimlariga juda qo'l kelib, soha terminning aynan o'zini qabul qilishi urf bo'lib bormoqda. Albatta, bu jarayon keying paytlarda jamiyatimizga texnika bilan bog'liq turli tipdagi kasb-hunarlar kirib kelishi va ularga xos terminologiyaning yuzaga kelishi natijasida texnik bilimlarning turli sohalarda jadal rivojlanishi va qo'llanishi bilan izohlanadi. Bu borada turli yo'nalishlarga xos tadqiqotlar olib borilayotganiga qaramay, texnika terminologiyasining shakllanish muammolari yetarlicha o'rganilmaganligi kuzatilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, bu masala bilimlarning aniq yangi yo'nalishlari bilan bog'liq terminologiyaning shakllanishi bilan bog'langan bois har qanday faoliyat sohasi terminologiyasi uning rivojlanishi bilan bog'liq holda yuzaga keladi.

Bundan roppa-rosa 36 yil avval "Davlat tili haqida"gi qonunning qabul qilinishi o'zbek tilining respublikamiz hayotining barcha sohalarida to'liq amal qilinishi uchun shart-sharoitlar yaratib berdi. Ona tilimiz ijtimoiy vazifasini kengaytirish uni ta'lim –tarbiyada, ilm-fanda, madaniyat va san'atda, shuningdek ish yuritishda to'la qo'llash istiqbolarini ochib berdi. Jamiyatning barcha sohalarida o'zbek tilining keng qo'llanishi uchun keng imkoniyat eshiklari ochildi. Shu bilan birga sohalarga doir terminlarni milliylashtirish ishlariga bo'lgan e'tibor ham kuchaya bordi.

Tilshunoslikda terminlarni tartibga solish masalasi har doim ham dolzarb bo'lib kelgan va bugun ham bu masala o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. O'zbek tilshunosligida sohaviy terminologiyalarni tartibga solish masalasida bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Lekin qilingan ishlarning salmog'i bilan chegaralanib, ko'ngilni xotirjam qila olmaymiz. Chunki terminlarni tartibga solish masalasini barcha soha terminologiyalarida ham bir xilda olib borilyapti, deb bo'lmaydi.

Ma'lumki, har bir fan sohasining rivojlanish va takomillashuv darajasi shu soha terminologiyasining qay darajada taraqqiy etganligi, shuningdek, tartibga solinganligi kabi belgilar bilan ham uzviy bog'liqdir (Nurmonov, 1992, 62-63-bet). Chunki ilmiy adabiyotda qo'llanadigan termin yoki uning ifoda shakli aniq va ravshan bo'lmas ekan, unda, albatta, chalkashlik, noaniqlik kabi salbiy holatlar saqlanib qolaveradi. Shu bois, V.P.Danilenko ta'kidlaganidek, har bir fan yoki sohaning taraqqiyot ko'rsatkichi shu soha terminologiyasining "qat'iy ilmiy terminologiya"ga ega ekanligi bilan ham belgilanadi. V.P.Danilenko bu yerda "qat'iy ilmiy terminologiya" tushunchasini biron bir sohaviy terminologiyaning mazkur fan sohasi taraqqiyoti bilan uyg'unlashuvi, sohaviy terminologiyaning ayni sohaga oid tushunchalarni ifodalashdagi hamohangligi, yaratilgan va muomalada bo'lib turgan terminologiyaning muayyan fan tili bilan mos kelishi kabi holatlarni nazarda tutadi (Danilenko, 1977, 157-bet).

Terminlarning “aniqligi va qat’iylashishi shu millatning fani, maorifi, madaniyati darajasini ko’rsatadi. Atamalarning rivojlanishi, tartibga solinishi fanning har xil sohalarida turlicha bo’lib, ma’lum fanning taraqqiyotiga bog’liq. Bu taraqqiyot to’xtovsiz bo’lgani uchun yangi atamalarning kelib chiqishi, tartibga tushishi ham uzluksiz bo’ladi. Umuman, ona tilida atamalarning puxta ishlanishi, tartibga solinishi darslik va qo’llanmalar tuzish uchun ham, ona tilida dars olib borish uchun ham zarur bo’lgan manbadir. Atamalarning ishlanmaganligi va tartibga solinmaganligi nutq uslubiga ham ta’sir ko’rsatadi” (Abdurahmonov, 2002, 84-85-bet). Demak, terminologiyani tartibga solinishi nafaqat ilmiy sohada, balki ijtimoiy hayotda ham ahamiyati katta bo’lgan masaladir.

Terminologiyani tartibga solishning samaradorligi terminlar bevosita qo’llanadigan quyidagi holatlarda yaqqol ko’rinadi: kasbiy ta’limni to’g’ri tashkil etishda, ishlab chiqarish amaliyotida bo’ladigan og’zaki muomalada, ilmiy va ishlab chiqarish jarayonlaridagi o’zaro yozishmalarda, matbaachilikda (ilmiy, o’quv, ishlab chiqarish kabilarga oid adabiyotlarni nashr etishda), chet el adabiyotlarini tarjima qilishda va hokazo.

Tilshunoslikda terminlarning o’zgarishi hamda yangi terminlarning paydo bo’lishi fan va texnika taraqqiyoti bilan uzviy bog’liqdir. Bu haqda tilshunos olim L.I.Bojno quyidagilarni ta’kidlaydi: “Texnika taraqqiyoti ta’sirida terminologiya o’zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika progressi qonuniyatlari bilan, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog’liq ravishda o’zgarib boradi” (Bojno, 1971, 103- bet). Texnik malakaning endilikda ma’lum tor doiradan chiqib, ommaviy xarakterga ega bo’layotganligi va turli sohalarning mutaxassislari kundalik faoliyatida fan va texnika yutuqlaridan keng foydalanayotganligi terminlarga bo’lgan yuksak talab bilan uning hozirgi holati orasidagi nomuvofiqlikni bartaraf etishni talab etadi. Chunki hayotda fan va texnika taraqqiyoti qanchalik katta ahamiyatga ega bo’lsa, uni egallash, boshqarish va taraqqiy ettirish uchun terminlar ham shunchalik muhim ahamiyatga molikdir. Shu jihatdan, terminlarni tartibga solish juda katta ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga egadir.

Fan-texnikaning tez sur’atlar bilan rivojlanib borishi natijasida yangidan yangi mashinalar, apparatlar, asbob-anjomlar va texnologik jarayonlarning paydo bo’lishi bilan ularni ifodalovchi yangi terminlar ham vujudga kelmoqda. Shu sababli, yangi texnika vositalari qaysi sohaga ko’proq kirib kelgan bo’lsa, shu soha terminologiyasi to’xtovsiz ravishda kengayib bormoqda. Ana shunday sohalardan biri bugungi texnika ilmi bilan shug’ullanuvchi sohasidir. Mazkur soha taraqqiyotiga e’tibor bersak, bu sohaga texnik vositalarning kirib kelishi, asosan, yigirmanchi asr boshlariga to’g’ri keladi. Lekin uning eng taraqqiy etgan davri bugungi kundagi holatidir. Hozirgi zamonaviy texnologiya fani texnika taraqqiyoti tufayli nafaqat ishlab chiqarish, balki hujjatlarni tayyorlash va ularning nusxalarini ko’paytirish

singari jarayonlarini o'zida mujassamlashtirgan muhim yetakchi vositalardan biriga aylandi. Natijada, ushbu soha terminologiyasiga juda ko'plab yangi tushunchalar va ular bilan birga yangi ilmiy-texnikaviy terminlar ham kirib kelmoqda. Albatta, bunday o'zgarishlar o'zbek tilining ish ko'rish doirasini kengaytirib, uning leksik tarkibini yangi-yangi ilmiy va texnik terminlar bilan boyitdi.

Ko'pchilik hollarda yangi terminlar yaratish ishiga oddiy tarjima yoki kalkalash jarayoni sifatida qaraymiz.

Terminologiyadagi mavjud kamchilik hamda tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri ham shundadir. Zotan, yangi termin yaratish har taraflama mukammal bo'lgan ijodiy jarayondir. Har qanday ilmiy-texnikaviy termin oddiy so'zning yoki so'z birikmasining terminologiyadagi aksi bo'lib, u aniq chegaralangan hamda belgilangan mazmunga ega bo'lishi, bu mazmun esa, matn doirasidan yoki undan tashqarida qo'llanishidan qat'i nazar, faqat shu sohaga oid bo'lishi lozim. Xususan, K.M.Musayev terminologiyani tilning leksikasi sifatida go'yo bir shaharga qiyoslaydi. Uning fikricha, "terminologiya yagona reja asosida qurilsa-da, lekin birdaniga barpo etilmaydi. U tarixiy shart-sharoit asosida shakllanadi, uni yaratishda har xil avlodga mansub bo'lgan turli me'morlar, loyihachilar, kashfiyotchilar ishtirok etadi. Ular har bir qurilayotgan inshootni yaxshi o'rgangan holda barpo etadilar. Terminologiyani tartibga solishdagi o'ziga xos murakkablik ham shu bilan belgilanadi" (Musayev, 1986, 163-bet).

Ilmiy adabiyotlarda barcha tillardagi sohaviy terminologiyalar uchun umumiy bo'lgan quyidagi jiddiy kamchiliklarni ko'rsatib o'tilgan: terminlarning ko'p ma'noliligi; terminlar sinonimiyasi; ma'lum bir tushunchani ifodalashga xizmat qiluvchi terminning anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyatiga uyg'un bo'lmasligi; terminning ko'p komponentlardan iborat bo'lishi va natijada, uni qo'llashdagi noqulaylik; termin talaffuzining noqulayligi (bunday terminlar ikki sababga ko'ra vujudga keladi: 1) asosiy terminni yaratishda uning derivatlilik imkoniyatlari etarlicha inobatga olinmaydi; 2) xorijiy terminni o'zlashtirishda unga jiddiy e'tibor bilan qarab, tanqidiy yondoshilmaydi); terminologiyani keragidan ortiq miqdorda xorijiy terminlar bilan to'ldirib tashlanishi; termin yaratilishida u anglatishi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan o'zaro batartiblik (sistemalilik)ning etishmasligi kabilardir (Lotte, 1961, 7-8-bet).

To'g'ri, hech qanday til faqat o'z termin elementlari hisobiga terminologiyasini qura olmaydi. Til qurilishi jarayoni shuni ko'rsatadiki, dunyoda sof tilning o'zi umuman mavjud emas. Har doim boshqa tillardan so'z va termin o'zlashtirish jarayoni sodir bo'lib turadi, bu jarayondan chekinish mumkin emas. Ammo ehtiyoj sezilmagan holatlarda ham xorijiy terminlarni sun'iy ravishda tilga olib kirish har doim o'zini oqlayvermaydi. Bunday holatlarda ko'proq o'z til imkoniyatlaridan foydalanish va bunda termin ifodalashi lozim bo'lgan tushuncha mohiyati bilan

termin o'rtasidagi mutanosiblikni saqlashga e'tiborni qaratish lozim. Ko'p hollarda ba'zi tushunchalarni ifodalovchi terminlar iste'molda mavjud bo'lmaydi. Natijada bunday tushunchalar o'ta muhim va ahamiyatli bo'lishiga qaramasdan, keng tarqalish imkoniyatidan mahrum bo'ladi.

Qayd etilganlarning ayrimlari o'zbek terminologiyasida ham mavjuddir. Xususan, tilimizda ayni bir 29 terminni birdan ortiq tushuncha uchun qo'llash, bir tushunchani turli terminlar bilan atash, variantlilikning mavjudligi, rus tili va u orqali Yevropa tillaridan o'zlashtirilgan, ayni paytda ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri o'zlashtirilayotgan terminlarning tushuncha mohiyatini to'g'ri aks ettira olmasligi, bir tushunchani ifodalovchi terminlarning noqulayligiga sabab bo'luvchi ko'p komponentlilik holatining mavjudligi, xorijiy terminlarning keragidan ortiq darajada qo'llanishi, ayrim terminlarning yozilishidagi har xillik kabi terminologiyaaning etakchi tendensiyasiga zid keluvchi holatlar ko'plab uchraydi.

Bunday har xilliklarning oldini olish uchun "...adabiy tilimizga kirib kelgan so'z va terminlarnig muqobil variantini boshqa turkiy tillardan, qolaversa xalq shevalaridan axtarish milliy terminologiyamiz rivojida salmoqli o'rin egallashi mumkin bo'ladi" (Abdiyev, 2017, 75-bet).

Xulllas, boshqa tillar kabi o'zbek tili terminologiyasidagi ham bunday salbiy holatlarning mavjudligi sohaviy terminologiyalarni tartibga solish va miliylashtirish borasida hali ko'p ishlar qilinishi lozimligidan dalolat beradi. Bu esa soha vakillari va tilshunoslar birgalikda ishlashlariga to'g'ri keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Абдиев М. (2017) *Она тилига хос терминларни асраб-авайлаш давр талаби\Ўзбек тили терминологияси: бугунги ҳолати ва истиқболи.*

Абдурахмонов Ў., Мамажонов С. (2002) *Ўзбек тили ва адабиёти. Ўзбекистон.*

Божно Л.И. (1971) *Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // Филологические науки, № 5.*

Даниленко В.П. (1977) *Русская терминология: Опыт лингвистического описания. Наука.*

Лотте Д.С. (1961) *Основы построения научно-технической терминологии. Изд-во АН.*

Мусаев К.М. (1986) *Формирование, развитие и современные проблемы терминологии. Наука.*

Нурмонов А. ва бошқ. (2002) *Ҳозирги ўзбек адабий тили. Шарқ.*